«Yil ayoli» milliy tanlovini taşkil etiş va ötkaziş tartibi töğrisida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom «Yil ayoli» milliy tanlovini (bundan buyon matnda — Tanlov deb yuritiladi) ötkaziş tartibini belgilaydi.

2. Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oşiriş, gender tenglik va oila masalalari böyiça respublika komissiyasi, Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qömitasi, Özbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qömitasi hamda Oila va xotin-qizlarni qöllab-quvvatlaş davlat maqsadli jamğarmasi tanlov taşkilotçilari hisoblanadi. Özbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat taşkilotlari, tadbirkorlik subyektlari, xalqaro taşkilotlar tanlovda hamkor taşkilotçi bölişi mumkin.

3. Özbekiston Respublikasi fuqarosi bölgan 35 yoşdan yuqori hamda öz yönalişi böyiça faoliyat bilan kamida 5 yil mobaynida uzluksiz şuğullanib kelayotgan ayollar, şuningdek, uy bekalari tanlov iştirokçilari hisoblanadi.

4. Özbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qömitasi tanlovning işçi organi hisoblanadi.

5. Tanlov uşbu Nizomning 1-ilovasidagi sxema böyiça ötkaziladi.

6. Tanlov iştirokçilarini baholaş:

uşbu Nizomning 2-ilovasiga muvofiq «Yil ayoli» milliy tanlovini ötkaziş böyiça Respublika taşkiliy qömitasining;

uşbu Nizomning 3-ilovasiga muvofiq namunaviy tarkibdagi «Yil ayoli» milliy tanlovining Qoraqalpoğiston Respublikasi, viloyatlar va Toşkent şahar bosqiçini taşkil etiş va ötkaziş böyiça taşkiliy qömitasining;

uşbu Nizomning 4-ilovasiga muvofiq namunaviy tarkibdagi «Yil ayoli» milliy tanlovining tuman (şahar) bosqiçini taşkil etiş va ötkaziş böyiça taşkiliy qömitasining qarorlari bilan tuziladigan Hakamlar hay’atlari tomonidan amalga oşiriladi.

2-bob. Tanlovning maqsadi

7. Tanlovning maqsadi — mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanişiga munosib hissasini qöşib kelayotgan, yuksak ma’naviyatli, oilada va farzand tarbiyasida ibrat böliş bilan birga özi faoliyat körsatayotgan taşkilot nufuzini oşirişda faol iştirok etayotgan turli soha egalari bölgan ayollarni qöllab-quvvatlaş, rağbatlantiriş, munosib taqdirlaş hamda bu boradagi ilğor tajribalarni ommalaştirişdan iborat.

8. Tanlovning vazifalari quyidagilardan iborat:

davlat va jamiyat hayotida faol iştirok etayotgan, har jihatdan ibratli, iste’dodli ayollarni aniqlaş, ularning faoliyatini keng jamoatçilikka yaqindan taniştiriş, ilğor iş tajribasini ommalaştiriş;

ayollar orasida professionallik, işbilarmonlik, raqobatbardoşlik muhitini şakllantirişga imkon beriş va bilim darajasini oşiriş uçun zarur şart-şaroitlar yaratiş;

tanlov iştirokçilari orasidan yuksak kasb mahoratiga ega bölgan, sohaning fidoyi mutaxassislarini tanlaş va ular haqidagi ma’lumotlar bazasini doimiy ravişda boyitib boriş.

3-bob. Tanlovni taşkil etiş va ötkaziş tartibi

9. Tanlov uç bosqiçda ötkaziladi:

Birinçi bosqiç — tuman (şahar) bosqiçi;

Ikkinçi bosqiç — hududiy bosqiç (Qoraqalpoğiston Respublikasi, viloyatlar va Toşkent şahar bosqiçi);

Uçinçi bosqiç — respublika bosqiçi.

10. Tanlovning respublika, hududiy, tuman (şahar) bosqiçlarini taşkil etiş va ötkaziş uçun belgilangan namunaviy tarkib asosida tuzilgan taşkiliy qömitalar tomonidan quyidagi çora-tadbirlar amalga oşiriladi:

joylarda tanlovni yuqori saviyada ötkazilişiga kömaklaşiş;

tanlovni yuqori saviyada ötkaziş uçun taşkiliy qömitalar a’zolarini hududlarga biriktiriş;

taşkiliy qömitalar a’zolari tomonidan tanlovning tegişli bosqiç ğoliblari faoliyatining joyiga çiqib örganilişini ta’minlaş;

har bir bosqiç uşbu Nizomda belgilangan qoidalarga muvofiq ötkazilişini nazorat qiliş;

har bir bosqiçda uşbu Nizomda belgilangan qoidalarga rioya qilmaslik holatlari aniqlansa, uni bartaraf etiş yuzasidan çora-tadbirlar belgilaş;

hududiy bosqiç natijalari töğrisida Respublika taşkiliy qömitasiga mazkur Nizomda belgilangan tartibda iştirokçilarning hujjatlari, ma’lumot va fotoalbomlarini tadbir ötganidan söng uç kun muddat içida taqdim etiş.

11. Taşkiliy qömitalar tanlovni taşkil etiş va ötkaziş jarayonlari ommaviy axborot vositalarida yoritilişini ta’minlaşga mas’uldir.

12. Tanlovning Qoraqalpoğiston Respublikasi, viloyatlar va Toşkent şahar bosqiçlarini ötkaziş böyiça tuzilgan taşkiliy qömitalar tuman (şahar)lardagi taşkiliy qömitalar işini muvofiqlaştirib boradi.

13. Tanlovning tuman (şahar) bosqiçini taşkil etiş va ötkaziş böyiça taşkiliy qömita tuman (şahar) bosqiçlarida tanlovda qatnaşiş istagini bildirgan ayollarning

iştirokini, ğoliblarni aniqlaş va keyingi bosqiçga tavsiya etiş bilan boğliq çora-tadbirlarni belgilaydi hamda amalga oşirilişini ta’minlaydi.

4-bob. Tanlov bosqiçlarini ötkaziş muddatlari

14. Tanlov bosqiçlari har yili quyidagi muddatlarda ötkaziladi:

Birinçi bosqiç — Tanlovning tuman (şahar) bosqiçini taşkil etiş va ötkaziş tuman (şahar) taşkiliy qömitalari tomonidan har yili oktyabr oyida ötkaziladi.

Hakamlar hay’ati qarori bilan belgilangan nominatsiyalar böyiça bir nafardan ğolib deb topilgan ayollarning hujjatlari Qoraqalpoğiston Respublikasi, viloyatlar va Toşkent şahar taşkiliy qömitalariga topşiriladi.

Ikkinçi bosqiç — Tanlovning Qoraqalpoğiston Respublikasi, viloyatlar va Toşkent şahar bosqiçi har yili noyabr oyida ötkaziladi.

Tanlovning Qoraqalpoğiston Respublikasi, viloyatlar va Toşkent şahar bosqiçida uşbu Nizomda belgilangan şartlar asosida belgilangan nominatsiyalar böyiça bir nafardan ğoliblar aniqlanadi va tanlovning respublika bosqiçida qatnaşişi töğrisida qaror qabul qilinadi.

Hakamlar hay’ati qarori bilan tasdiqlangan ğoliblarning hujjatlari har yili 30-noyabrga qadar respublika taşkiliy qömitasiga topşiriladi.

Uçinçi bosqiç — Respublika bosqiçi har yili dekabr oyining oxirgi 10 kunligida tantanali tarzda ötkaziladi.

Respublika bosqiçida Tanlovning Qoraqalpoğiston Respublikasi, viloyatlar va Toşkent şahar bosqiçida belgilangan nominatsiyalar böyiça ğolib deb topilgan ayollar qatnaşadilar.

Respublika taşkiliy qömitasi qaroriga köra Tanlov bosqiçlarini taşkil etiş va ötkaziş muddatlari özgartirilişi mumkin.

15. Hakamlar hay’ati tanlovning tuman (şahar) bosqiçlarida 5 kişidan, Qoraqalpoğiston Respublikasi, viloyatlar hamda Toşkent şahar bosqiçlarida 7 kişidan, respublika bosqiçida 9 kişidan iborat tarkibda tuziladi.

16. Tanlovning hududiy bosqiçlari ğoliblarini tantanali taqdirlaş marosimi quyidagi tartibda ötkaziladi:

hudud markazlarida ötkaziladigan taqdirlaş tadbiri uçun nufuzli bino ajratiladi;

taqdirlaş marosimiga eng çekka qişloqlar, ovullarda yaşayotgan, fidokorona mehnati bilan obrö-e’tibor qozongan, öz mahallasi ravnaqi, tinçligi va obodligiga munosib hissa qöşgan uluğ onaxonlar va turli yoşdagi xotin-qizlar taklif qilinadi;taqdirlaş marosimiga eng çekka qişloqlar, ovullarda yaşayotgan, fidokorona mehnati bilan obrö-e’tibor qozongan, öz mahallasi ravnaqi, tinçligi va obodligiga munosib hissa qöşgan uluğ onaxonlar va turli yoşdagi xotin-qizlar taklif qilinadi;

tadbir davomida hudud xotin-qizlari faoliyatini aks ettiruvçi, şuningdek, ayollar tomonidan işlab çiqarilgan mahsulotlarning körgazmalari, yarmarkalar taşkil qilinadi;

tadbirda taniqli xonandalar, yozuvçilar va boşqa san'at vakillari iştirokidagi konsert dasturi taşkil etiladi;

tanlov jarayonlari Internet tarmoqlari va ommaviy axborot vositalarida keng yoritiladi.

17. Respublika bosqiçi ğoliblarini tantanali taqdirlaş marosimi quyidagi tartibda ötkaziladi:

Toşkent şahrida ötkaziladigan taqdirlaş tadbiri uçun bino ajratiladi;

taqdirlaş marosimiga mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanişiga özlarining ulkan hissasini qöşib kelayotgan, yuksak ma'naviyatli, oilada va farzand tarbiyasida ibrat böliş bilan birga özlari faoliyat körsatayotgan taşkilotlar nufuzini oşirişda faol iştirok etayotgan turli soha egalari bölgan faol ayollar hamda turli yoşdagi xotin-qizlar taklif qilinadi;

tadbirda taniqli xonandalar, yozuvçilar va boşqa san'at vakillari iştirokidagi konsert dasturi taşkil etiladi.

5-bob. Tanlovni ötkaziş şartlari

18. Barça bosqiçlarda tanlov iştirokçilari quyidagi şartlar asosida baholanadi:

Birinçi şart — «Özini taniştiriş».

Uşbu şartda tanlov iştirokçilari 3 daqiqa içida öz faoliyati, oilasi, jamiyatda tutgan örni, hududidagi faolligi haqida sözlab berişi hamda taqdimotini namoyiş etişi zarur.

Iştirokçining özi haqidagi ma'lumotni tasvirlaş, libosi, taşqi körinişi va içki dunyosi (ma'naviyati, zamonaviy ayol qiyofasi, milliylik va zamonaviylikning uyğunligi) baholanadi.

Ikkinçi şart — «Savol va javob».

Uşbu şartda iştirokçilarga mamlakatimizda olib borilayotgan keng kölamli islohotlar, ayniqsa oila, xotin-qizlarni yanada qöllab-quvvatlaş, ularning davlat hamda jamiyatdagi örnini mustahkamlaşga qaratilgan 2 tadan savol beriladi va 2 daqiqa vaqt ajratiladi.

Uçinçi şart — «Zamonaviy özbek ayoli» mavzusidagi videorolik namoyişi.

Uşbu şartda iştirokçilar özlarining faoliyat yönalişi böyiça 3 daqiqalik videorolik namoyişini taqdim etadi.

Bunda iştirokçilar belgilangan yönalişlardan birini tanlagan holda özining faoliyat yönalişini yoritib beradi.

Tanlangan mavzuni yoritişning öziga xosligi, rang-barangligi, mavzuga oid materiallardan mahorat bilan foydalana olişi, kreativ yondaşuvi hamda keng dunyoqaraşi baholanadi.

19. Barça şartlar Hakamlar hay'atining har bir a'zosi tomonidan 5 ballik mezon asosida baholanadi.

20. Tanlovning tuman (şahar) va hududiy bosqiçlarida 3 ta şart natijalariga köra eng köp ball olgan iştirokçilar ğolib deb topiladi.

Ballar teng bölib qolganida tanlov ğoliblari eng köp bir xil ball olgan iştirokçilarning taşkiliy qömita tomonidan tayyorlangan qöşimça savollarga bergan javoblari Hakamlar hay'ati tomonidan baholaş orqali aniqlanadi.

Hakamlar hay'ati raisining ovozi hal qiluvçi bölib hisoblanadi.

21. Tanlovning respublika bosqiçida belgilangan 3 ta şart asosida iştirokçilarning töplagan ballariga qarab, oliy örin, 1, 2 va 3-örin hamda belgilangan nominatsiyalar böyiça ğoliblar aniqlanadi.

22. Tanlov ötkaziş böyiça Hakamlar hay'ati majlisida bayonnoma yuritiladi va u Hakamlar hay'ati raisi, mas'ul kotib va tanlovda qatnaşgan Hakamlar hay'atining boşqa a'zolari tomonidan imzolanadi.

Bayonnomada quyidagilar körsatilişi şart:

tanlov ötkaziş joyi va sanasi, tanlovning boşlaniş va yakunlaniş vaqti;

tanlovda qatnaşgan Hakamlar hay'ati a'zolarining röyxati;

tanlovda qatnaşgan ayollarning röyxati;

baholaş varaqasidagi ballarni hisoblaş natijalari, şu jumladan har bir iştirokçi tomonidan töplangan ballar;

tanlov ğolibi mazkur Nizom talablariga köra ovoz beriş yöli bilan aniqlangan bölsa — ovoz beriş natijalari;

tanlov ötkaziş jarayoniga taalluqli bölgan boşqa ma'lumotlar;

tanlov yakunlari böyiça Hakamlar hay'ati qarori, şu jumladan tanlovda nominatsiyalar böyiça ğolib deb topilgan iştirokçilar;

Hakamlar hay'ati qarori ustidan şikoyat qiliş tartibi.

Iştirokçilar tomonidan töplangan ballar, ovoz beriş natijalari hamda Hakamlar hay'atining qarori şu kunning özida tanlovda iştirok etgan talabgorlarga öqib eşittiriladi.

Belgilangan şartlar asosida baholaş varaqalari, Hakamlar hay'ati a'zolari majlisining bayonnomasiga ilova qilinadi.

6-bob. Tanlovda iştirok etiş uçun taqdim etilişi lozim bölgan hujjatlar

23. Tanlovda iştirok etiş uçun belgilangan hujjatlar quyidagi muddatlarda taqdim etilişi lozim:

tanlovning tuman (şahar) bosqiçi iştirokçilari tomonidan öz faoliyatiga doir hujjatlar hududdagi tuman (şahar) taşkiliy qömitalariga — har yili 1-oktyabrga qadar;

tanlovning tuman (şahar) bosqiçida belgilangan nominatsiyalar böyiça ğolib bölgan xotin-qizlarning faoliyatiga doir hujjatlar Qoraqalpoğiston Respublikasi, viloyatlar va Toşkent şahar taşkiliy qömitalariga — har yili 1-noyabrga qadar;

tanlovning Qoraqalpoğiston Respublikasi, viloyatlar va Toşkent şahar bosqiçida belgilangan nominatsiyalar böyiça ğolib bölgan xotin-qizlarning faoliyatiga doir hujjatlar respublika taşkiliy qömitasiga — har yili 1-dekabrga qadar.

24. Iştirokçilar Taşkiliy qömitaga quyidagi hujjatlarni taqdim etişi lozim.

har bir iştirokçining şaxsini tasdiqlovçi hujjat nusxasi;

tanlovda iştirok etiş uçun hududiy Taşkiliy qömita raisi nomiga iştirokçi tomonidan imzolangan ariza (2-ilova);

tanlov iştirokçisining maxsus sörovnoma şakli (3-ilova);

öz faoliyatini aks ettiruvçi ma’lumotlar, körgazmali materiallar;

mehnat faoliyati va erişgan yutuqlarini tasdiqlovçi hujjatlarning nusxalari;

diplom hamda turli sertifikat nusxalari;

iş joyidan tavsifnoma (uy bekalari uçun mahalladagi xotin-qizlar faolining tavsifnomasi).

özi, oilasi, jamiyatda tutgan örni, hududidagi faolligi haqida taqdimot;

tanlagan yönalişi böyiça faoliyatini oçib beruvçi 3 daqiqalik videorolik;

25. Belgilangan muddatlardan keçiktirib topşirilgan hujjatlar qabul qilinmaydi.

7-bob. Tanlov ğoliblarini taqdirlaş

26. Tanlov bosqiçlarida belgilangan nominatsiyalar böyiça ğolib deb topilgan iştirokçilar hududiy taşkiliy qömitalarning yiğiliş qarori bilan tasdiqlanadi.

Tanlov ğoliblari hududiy taşkiliy qömitalar bilan kelişgan holda, maxsus diplom va homiylar hamda hamkor taşkilotlarning esdalik sovğalari bilan mukofotlanadi.

27. Tanlovlarda quyidagi nominatsiyalar böyiça ğoliblar aniqlanadi:

«Yilning eng vatanparvar ayoli» nominatsiyasi:

Vatanimiz tinçligini asraş yölidagi munosib xizmati, xotin-qizlar örtasida jinoyatlarning oldini oliş, oilalar farovonligini ta'minlaş yölida olib borayotgan namunali faoliyati, çekka va olis hududlarda joylaşgan harbiy qism va şaharçalarda xizmat qilayotgan huquq-tartibot (içki işlar, prokuratura, mudofaa, çegara qöşinlari, milliy gvardiya, davlat xavfsizlik xizmati, soliq, favqulodda vaziyatlar, bojxona) idoralarida xizmat qilayotgan va şu bilan birga oqila oila bekasi bölgan xotin-qizlarga beriladi.

«Yilning eng faol olima ayoli» nominatsiyasi:

Qonunçilik hujjatlari mazmun-mohiyatini teran anglaydigan, kamida 2 ta çet tilini biladigan, ilmiy tadqiqoti dolzarb va respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga hissa qöşayotgan, şuningdek, ustoz-şogird yönalişida yoş olimlarni yetiştirişda namuna böladigan, Özbekiston ilm-fanini dunyoga tarğib qilgan xotin-qizlar bu nominatsiyaga erişişi mumkin.

«Yilning eng ilğor tadbirkor ayoli» nominatsiyasi:

Hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga hissa qöşayotgan, faoliyatiga zamonaviy texnologiyalarni jalb etayotgan, aholi uçun eng köp iş örinlarini yaratgan, ehtiyojmand oilalarga mehr-muruvvat körsatayotgan, tadbirkorlikning turli yönalişida oqila oila bekasi, fermer xöjaligi rahbari, aholi turmuş darajasini yaxşilaşga hissa qöşayotgan tadbirkor, hunarmand uşbu nominatsiyaga munosib köriladi.

«Yilning eng yaxşi ijodkor ayoli» nominatsiyasi:

Yil davomida ona yurtga muhabbat, qadriyatlarimizga sadoqat, vatanparvarlik kabi ğoyalarni özida mujassam etgan badiiy asarlar, xalq amaliy san'ati, tasviriy san'at asarlarini yaratgan, asarlari xorijiy mamlakatlarda tarjima qilinib, e'lon qilingan, jahon adabiyoti va san'atiga salmoqli hissa qöşayotgan hamda uşbu ijod namunalari bilan aholining e'tirofiga sazovor bölgan fidoyi, xulqi bilan namuna böla oladigan şoira, yozuvçi, jurnalist, suxandon, rassom, aktrisa, xonanda, bastakor xotin-qizlar uşbu nominatsiya ğolibi bölişi mumkin.

«Öz kasbining ustasi bölgan yil ayoli» nominatsiyasi:

Uşbu nominatsiyada turli kasblarda yuqori çöqqilariga erişgan yetuk mutaxassislar, öz kasbining sirlarini puxta egallagan, unga zamonaviy texnologiyalarni joriy etgan, oğir va yengil sanoat korxonalarida işlayotgan va fidoyi mehnati bilan namuna bulayotgan, yoş mutaxassislarga ustozlik qilayotgan xotin-qizlar iştirok etişlari mumkin.

«Yilning eng kuçli ma'naviy-ma'rifiy tarğibotçisi» nominatsiyasi:

Uşbu nominatsiya böyiça xotin-qizlar ma'naviyatini yuksaltirişda faol iştirok etayotgan, jamiyatda yangi ma'naviy makon yaratiş, ezgu ğoyalarni singdiriş, mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni soğlomlaştirişga salmoqli hissa qöşib kelayotgan, obrö-e'tiborli ayollarni öz safida birlaştirgan, «Oqila ayollar» harakatini namunali yölga qöygan, oilalarni mustahkamlaş böyiça samarali

tarğibot-taşviqot işlarini faollik bilan olib borayotgan va natijalarini körsatib bera olgan, jamoatçilikka, avvalo, yoşlarga tarbiyaviy ta'sir körsata oladigan faol ayollar taqdirlanadilar.

«Yilning eng yaxşi uy bekasi» nominatsiyasi:

Uşbu nominatsiya mahallada özining ma'naviyati, ma'rifati, madaniyati bilan e'tiborga ega bölgan, farzand tarbiyasida şaxsiy namuna körsatgan, yuksak fazilatli, elga munosib xizmat qilayotgan yoki jahon miqyosida yutuqlarga ega bölgan farzandlarni tarbiyalayotgan xonadon ozodaligini saqlagan, xonadonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlagan uy bekalariga beriladi.

«Yilning eng jonkuyar ustozi» nominatsiyasi:

Uşbu nominatsiya yoş avlodni tarbiyalaşda munosib hissa qöşayotgan, ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy işlarning samarali taşkil etayotgan, qizlar tarbiyasida hamkor taşkilotlar bilan yuqori natijalarga erişayotgan, şogirdlari xalqaro yoki respublika olimpiadalarida, tanlovlarda faxrli örin olgan, «Qizlarjon» klubi faoliyatini namunali yölga qöygan, ibratli hayot keçirgan namunali ayollar bilan doimiy ma'rifiy işlarni yölga qöygan faol ustoz-murabbiylarga beriladi.

«Yilning eng faol soğlom turmuş tarzi tarğibotçisi» nominatsiyasi:

Xotin-qizlar salomatligini mustahkamlaşda munosib hissa qöşayotgan, sportning ommaviyligini ta'minlab, mahallalarda uy bekalari va yoşi keksa ayollar örtasida sport-soğlomlaştiriş tadbirlarini samarali taşkil etayotgan, xotin-qizlarni Özbekiston va xalqaro darajadagi musobaqalardagi iştirokini ta'minlayotgan va yuqori natijalarga erişişiga hissa qöşayotgan tibbiyot yoki sport sohasidagi xotin-qizlarga beriladi.

«Yilning eng yangi ğoyalar taşabbuskori» nominatsiyasi:

Barça tarmoqlarda sohaga va jamiyat rivojiga yangi ğoyalar kiritayotgan, uşbu ğoyalarni amalda tatbiq etib, samarali natijaga erişayotgan, ilmiy yoki innovatsion işlanmasi tijoratlaştirişga yönaltirilgan, ğoyasi orqali ilm-fanni dunyoga tarğib qilgan xotin-qizlar taqdirlanadi.

«Yilning eng yaxşi IT — dasturçi ayoli» nominatsiyasi:

Uşbu nominatsiya böyiça axborot, moliya, logistika, elektron tijorat, elektron ta'lim, biotexnologiya, şuningdek, jamiyatda mavjud ijtimoiy muammolarga va boşqa yönalişlarda loyihalarni amalga oşirayotgan, kreativ yondaşuvi, özi faoliyat yuritayotgan taşkilotning IT infratuzilmasini yaxşilaş, an'anaviy elektron formatdan raqamli körinişga ötkazgan yoki mustaqil ravişda dasturlaş bilan şuğullanayotgan ayollar taqdirlanadi.

28. Tanlovning Qoraqalpoğiston Respublikasi, viloyatlar va Toşkent şahar bosqiçida tanlovni ötkaziş, ğoliblarni taqdirlaş Oila va xotin-qizlar davlat maqsadli jamğarmasi va hamkor taşkilotlar tomonidan yuqori turuvçi taşkilotlar bilan kelişilgan holda moliyalaştiriladi va mablağlar taqsimlanadi.

29. Tanlovning respublika bosqiçida oliy örin — Gran-pri hamda 1, 2 va 3-örinni egallagan iştirokçilar Oila va xotin-qizlarni qöllab-quvvatlaş davlat maqsadli jamğarmasi mablağlari hisobidan:

Tanlovda oliy örin — Gran prini qölga kiritgan iştirokçi oliy darajadagi diplom, statuetka va Prezident sovğasi — avtomobil bilan;

1-örinni olgan iştirokçi 1-darajali diplom va bazaviy hisoblaş miqdorining 50 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan;

2-örinni olgan iştirokçi 2-darajali diplom va bazaviy hisoblaş miqdorining 40 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan;

3-örinni olgan iştirokçi 3-darajali diplom va bazaviy hisoblaş miqdorining 30 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

Tanlovning yakuniy respublika bosqiçida yuqori örinlarni egallagan iştirokçilarga taqdim etiladigan sovrinlar miqdori tanlovga kamida 10 kun qolgunga qadar Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oşiriş, gender tenglik va oila masalalari böyiça respublika komissiyasi raisi bilan kelişilgan holda özgartirilişi mumkin.

Tanlovda faol iştirok etib, belgilangan nominatsiyalar böyiça ğolib deb topilgan iştirokçilar homiylar va hamkor taşkilotlar tomonidan ajratilgan qimmatbaho sovğalar bilan ham taqdirlanadi.

30. Tanlovning barça bosqiçlarida sovrinli örinlar hamda nominatsiyalar böyiça maxsus diplomlar, sovrinlar, belgilangan mukofotlar va sovğalar tanlovda ğolib deb topilgan iştirokçilarga Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oşiriş, gender tenglik va oila masalalari böyiça respublika komissiyasi, Oila va xotin-qizlar davlat qömitasi, tanlovni taşkil etiş va ötkaziş böyiça taşkiliy qömita a’zolari hamda homiylar tomonidan tantanali ravişda topşiriladi.

31. Tanlovning barça bosqiçlarida Tanlov natijalarini e’lon qiliş hamda ğoliblarni taqdirlaş jarayonlari iştirokçilar, hay’at a’zolari, keng jamoatçilik hamda ommaviy axborot vositalari vakillari taklif qilingan holda amalga oşiriladi.

Tanlov ğoliblari va sovrindorlari markaziy va ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda şu jumladan taşkilotçilar naşrlarida e’lon qilinadi.

8-bob. Yakuniy qoidalar

32. Tanlovning barça bosqiçlarida ğolib bölgan hamda faol qatnaşgan iştirokçilarning hujjatlari Oila va xotin-qizlar davlat qömitasi hamda hududiy bölimlarida 1 yil muddatda saqlanadi.

33. Tanlov iştirokçilari Hakamlar hay’ati qarori yuzasidan tanlovning har bir bosqiçi yakuni böyiça bir kun muddatda Hakamlar hay’ati raisi nomiga appelyatsiya şikoyati (ariza) berişlari mumkin.

Appelyatsiya şikoyati belgilangan tartibda röyxatga olinadi, uç iş kuni içida körib çiqilib, bayonnoma bilan rasmiylaştiriladi va öşa kunning özida e’lon qilinadi.

34. Iştirokçining şikoyati (arizasi) qanoatlantirilsa, tanlov natijalari Hakamlar hay’ati tomonidan qayta körib çiqiladi va unga özgartişlar kiritiladi. Hakamlar hay’atining uşbu qarori yakuniy hisoblanib, qaror qayta tasdiqlanadi.

35. Tanlovni Uşbu Nizom talablari hamda qonuniylik, oşkoralik, adolatlilik, tenglik kabi asosiy prinsiplarga rioya qilgan holda taşkil etiş va ötkazişga respublika va hududiy taşkiliy qömitalarning raislari va a’zolari şaxsan javobgar hisoblanadi.

36. Mazkur Nizom talablarining buzilişida aybdor şaxslar qonunçilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.